



<https://doi.org/10.5281/zenodo.10101239>

M.O. Khomidova

ADCHTI, Department of General and Comparative Linguistics

ABSTRACT

Phraseological units in the Uzbek language can be grouped as socio-economic phraseology, mental state, physical state, and mental state phraseology based on the status sign. Each of these is combined with a certain common sign and differs by means of special signs

Keywords

phraseologism, seme, phraseme, structure

JISMONIY VA AQLIY HOLAT BILDIRUVCHI FRAZELOGIZMLAR

M.O.Xomidova

ADCHTI, Umumiy va qiyosiy tilshunoslik kafedrası

ANNOTATSIYA

O‘zbek tilidagi frazeologik birliklarni holat belgisi asosida ijtimoiy-iqtisodiy holat bildiruvchi, ruhiy holat bildiruvchi, jismoniy holat bildiruvchi, aqliy holat bildiruvchi frazeologizmlar sifatida guruhlash mumkin. Bularning har qaysisi o‘z ichida muayyan umumiy belgisi bilan birlashib, xususiy belgilar vositasida farqlanadi.

Kalit so‘zlar

frazeologizm, sema, frazema, struktura

АННОТАЦИЯ

Фраzeологические единицы в узбекском языке можно группировать как фразеологию социально-экономического состояния, психического состояния, физического состояния и фразеологию психического состояния по статусному признаку. Каждое из них сочетается с определенным общим знаком и различается специальными признаками.

Ключевые слова

фразеологизм, сема, фразема, структура.

~~O‘zbek tilshunosligida yosh va jins belgisi anglatish tilshunolar e‘tiborini tortgan. Shuningdek, frazeologizmlar tahlilida ham ularning shakllanish, ma’no ko‘chish masalalariga qaratilgan muammolar ko‘rsatib o‘tilgan. Biroq frazeologizmlarning semik tahliliga maxsus ravishda e‘tibor kuzatilmaydi. Jismoniy holat bildiruvchi frazeologik birliklar shular sirasiga kiradi. Bu FSGga “yosh” semali, “tug‘ilish” va “o‘lim” semali, “salomatlik” semali, “tashqi ko‘rinish” semali va shu kabi bir qator FBlar kiradi.~~

Sh.Rahmatullayev “O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati”da ayrim yosh anglatuvchi frazeologik iboralarni keltirib o‘tgan bo‘lishiga qaramay, bunday belgiga ega bo‘lgan iboralar ancha kam uchraydi. Yosh belgisi bilan alohida farqlanuvchi frazeologizmlar qatoriga ona suti og‘zidan ketmagan, balog‘atga yetgan, suyagi qotmagan, bir oyog‘i yerda, bir oyog‘i go‘rda, esini tanigan, sharti ketib, parti qolgan, o‘n gulidan bir guli ochilmagan kabi iboralar mansub. Bunday frazeologizmlar uchun xos bo‘lgan umumiy ma’no belgisi “yosh” semasi sanaladi. O‘z tarkibida bunday frazeologizmlarni “yoshlik” hamda “keksalik” belgisi bilan zidlangan frazeologizmlarga ajratish mumkin. O‘z navbatida, ularning har qaysisi ma’lum ichki belgilari bilan farqlanadi. Dastlabki bo‘linishda ular quyidagicha guruhlanadi:

- “go‘daklik” semali frazeologizmlar;
- “navqironlik” semali frazeologizmlar;
- “keksalik” semali frazeologizmlar.

Birinchi kichik guruhga suyagi qotmagan, ona suti og‘zidan ketmagan frazeologik birliklarini kiritish mumkin. Ularda mavjud yosh belgisi bilan birga, “go‘daklik” semasi kuzatiladi.

Buni qarang-a, menga hali ona suti og‘zidan ketmagan bir bola aql o‘rgatsa-ya! (S.A.) Ikkinchi guruhga esa balog‘atga yetgan, bo‘yi yetgan, o‘n gulidan bir guli ochilmagan, er yetgan, oq-qorani tanigan, esini tanigan, barq urmoq iborolari kiradi. Bularning ayrimlarida jismoniy quvvat belgisi (balog‘atga yetgan, bo‘yi yetgan, er yetgan, o‘n gulidan bir guli ochilmagan), ayrimlarida aql belgisi (esini tanigan, oq-qorani tanigan) ustunlik qiladi. Asalxonning bo‘lsa hali o‘n gulidan bir guli ochilmagan edi. (H.G‘.) Berilgan gapda ishtirok etgan ibora orqali personajga xos bo‘lgan yoshlik, yetuklik, go‘zallik belgisi ham namoyon bo‘lmoqda.

“Keksalik” semali frazeologizmlar tarkibida bir oyog‘i yerda, bir oyog‘i go‘rda, sharti ketib parti qolgan iborolari tahlil qilinadi. Chunki bu birliklarda “keksalik” hamda “quvvatsizlik” semalari gavdalanmoqda.

Sh. Rahmatullayev bir oyog‘i yerda (to‘rda), bir oyog‘i go‘rda iborasini shunday izohlaydi: Bir oyog‘i to‘rda, bir oyog‘i go‘rda – umri tugay deb qolgan. Demak, ushbu izoh orqali frazeologik birlikning faqatgina keksalik belgisi bilan emas, balki bemorlik belgisi bilan ham ifodalanishini nazardan soqit qilmaslik



kerak. Mening bir oyog'im yerda bo'lsa, bir oyog'im go'rda bo'lsa, to'satdan o'lib qolsam... (O'.A.) O'zbek tilida ba'zan kishilarga xos bo'lgan yosh belgisini aks ettirish uchun ko'zi(m) tirikligida iborasi ham tez-tez ishlatiladi. Bu ibora ko'pincha yoshi keksaygan shaxslar tomonidan ishlatilishini nazarda tutsak, unda ham "yosh", "keksalik" semasining mavjud ekanligi aniq ko'rinib qoladi. Ushbu frazeologizmlarning yosh belgisini aniqroq ifodalash uchun ular o'rtasidagi darajalanish munosabatini ko'rsatib o'tish mumkin: suyagi qotmagan - balog'atga yetgan - o'n gulidan bir guli ochilmagan - sharti ketib parti qolgan - bir oyog'i yerda, bir oyog'i go'rda Jismoniy holat FSGga "tug'ilish" va "o'lim" semali FBlar ham ko'plab uchraydi: dunyoga kelmoq, dunyodan ketmoq, dunyodan o'tmoq, joni uzildi, jon bermoq, joni chiqdi, yer tishlamoq, yostig'i quridi. Bu qatordagi dunyoga kelmoq frazeologizmi "tug'ilish" semali FB hisoblanadi. Uning varianti bo'lgan dunyoga keltirmoq birligi "tug'moq" semasiga ega. Shu semasiga ko'ra ko'zi yorimoq, jon bermoq frazeologizmi bilan bir paradigmada yotadi. Dunyodan ketmoq, dunyodan o'tmoq FBlari "o'lim" semasiga ega bo'lib, dunyoga kelmoq birligi bilan antonimlik hosil qiladi. Joni uzildi, jon bermoq, joni chiqdi FBlarining semantik strukturasi ham "o'lim" semasi mavjud. Ular ko'p hollarda "vaqt" semali birliklar bilan sintagmatik munosabatga kirishadi va o'lim paytiga ishora qiladi. Yotgan yerida to'lg'ana-to'lg'ana, qorong'i tushganida joni uzildi. (M.) Yer tishlamoq, yostig'i quridi, yer bilan yakson bo'lmoq iboralari ham "o'lim" semali birliklar hisoblanadi. Ular "sabab" valentligiga ega bo'lib, shunday mazmundagi birliklar bilan bog'lanadi. "O'lim" semali frazeologizmlar qatoriga jonini olmoq, boshiga yetmoq, boshini yemoq kabi birliklarni ham kiritish mumkin. Joni bor, jon kirdi iboralari ham jismoniy holat bildiruvchi FSG tarkibiga kirib, "o'lim" va "hayot" semalariga ega.

Jismoniy holat bildiruvchi FSGda "salomatlik" semasiga ega bo'lgan birliklar ham o'rganiladi. Yostiqdan bosh ko'tarmoq, bosh ko'tarmoq, boshi yostiqa yetganda FBlari aynan shu semaga ega bo'lgan birliklar qatoriga kiradi. "salomatlik" semasi yuqoridagi har uchala FBda ham mavjud bo'lsa-da, boshi yostiqa yotganda frazeologizmi "yomonlashish" semasi bilan yuqoridagi ikki FBdan farqlanadi. Ushbu FSGga kiruvchi "tashqi ko'rinish" semasi bilan umumlashuvchi FBlarni shartli ravishda ikkiga bo'lishimiz mumkin: "chiroyli" hamda "xunuk" semali FBlar. "chiroyli" semasiga ega bo'lgan istarasi issiq yoki yulduzi issiq birliklari har ikki jins vakillari uchun birdek qo'llangani holda, bir qoshiq suv bilan yutib yuborguday birligi faqat ayol jinsidagi insonlar uchun qo'llaniladi. Afti sovuq yoki so'xtasi sovuq "xunuk" semali birliklar qatorida o'rganish mumkin. Bundan tashqari jismoniy holat bildiruvchi FSG tarkibiga yana bir qator: dabdalasi chiqdi, abjag'i chiqdi (jismoniy holatning "yomon"ligi), bardosh bermoq, zuvalasi pishiq (jismoniy holatning "yaxshi"ligi), dong qotmoq



("uyqu"), bel olishmoq ("sinov") singari FBlarni ko'rib o'tish mumkin. Umuman, iboralarga xos boy ifoda imkoniyatlarini chuqur tahlil etish tilimizning o'ziga xos xususiyatlarini kengroq ochish uchun xizmat qiladi.

Aqliy holat bildiruvchi frazeologik semantik guruhlarni shartli ravishda faoliyat va holat anglatuvchi guruhlarga bo'lish mumkin. Birinchi guruhga bevosita insonning aqliy faoliyati bilan bog'liq frazemalarni kiritish mumkin: boshini og'ritmoq, boshi bilan sho'ng'ib ketmoq, bir kesak bilan ikki quyonni urmoq, aravani quruq olib qochmoq, ahamiyat bermoq, e'tibor bermoq, baho bermoq, zehn solmoq, bog'dan kelsa, tog'dan kelmoq, yetti o'lchab bir kesmoq, yodidan ko'tarmoq, gaplari bir joydan chiqmoq, miyasiga kelmoq, esiga kelmoq, xayoliga kelmoq, xayolidan o'tmoq, ko'nglidan o'tmoq, xayol surmoq, o'y surmoq, xayolga botmoq, xayolga cho'mmoq, o'yga botmoq, bu qulog'idan kirib, u qulog'idan chiqib ketmoq. Bu FSGga kiruvchi boshini og'ritmoq, boshi bilan sho'ng'ib ketmoq, xayolga botmoq, xayolga cho'mmoq, o'yga botmoq FBlarini "o'ylamoq", "astoydil kirishmoq" semalari birlashtiradi. Bu FBlar insonni aqliy faoliyatga qattiq kirishganligini bildiradi.

Ahamiyat bermoq, e'tibor bermoq, baho bermoq FBlari "e'tibor" semasi yordamida umumiylik hosil qiladi. Aqliy faoliyat sifatida ahamiyat bermoq, e'tibor bermoq frazemalari birinchi bosqich - "diqqat", "e'tibor" bosqichini bildirsa, baho bermoq frazemasini bevosita keyingi bosqich - "xulosa", ya'ni "e'tibor" ning natijasini anglatadi. Aqliy faoliyat FSGga kiruvchi miyasiga kelmoq, esiga kelmoq, xayoliga kelmoq frazemalari "o'ylamoq" semasi bilan bir qatorda "birdan", "tez" semalariga ham ega bo'lib, bu semalar paradigmaga mansub bo'lgan boshqa birliklardan farqlash uchun xizmat qiladi va yuqoridagi FBlarni "vaqt" arxisemali FSGga kiritish uchun asos bo'ladi. Harakatning kuchayishi bilan bog'liq ma'no, ya'ni fikrning nihoyatda tez ravishda miyaga kelishi uchun chaqmoqday chaqnadi ifodasidan ham foydalaniladi:

"Dadam! Dadamlar qaytibdur!" degan fikr miyasida chaqmoqday chaqnadi-yu, uy to'la erkak ekani esidan chiqib, mehmonxonaga qarab yugurdi (O. Yoqubov).

Xayolidan o'tmoq frazemasini "o'ylamoq", "fahmlamoq" semalari bilan paradigmanning tashkil etuvchi a'zosi hisoblanadi. Xayolidan o'tmoq frazemasining "vaqtincha", "ma'lum bir vaqt oralig'ida", "davomli" semalari bu frazemaning xususiy belgisi sanaladi. Xayolidan o'tmoq frazemasini fikrning ma'lum bir muddat, davomli yuzaga kelishi, miyani ma'lum bir vaqt oralig'ida band qilishlik ma'nolarini anglatadi. Ikkinchi kichik guruhga aqliy holat bildiruvchi FBlar qatoriga ilonning yog'ini yalagan, yer tagida ilon qimirlasa bilmoq, aqli yetadi, esini yemoq, esi kirdi, aqldan ozmoq, "bo'rk ol" desa bosh olmoq, alifni kaltak



deyolmaslik, boshi shishdi, boshi qotdi singari birliklarni kiritish mumkin. Bu FBlar insonning umumiy aqliy ahvoliini bildirish uchun xizmat qiladi.

Ushbu qatorga kiruvchi ilonning yog‘ini yalagan, yer tagida ilon qimirlasa bilmoq birliklari aqliy holatni bildirib, “aqli” semasi orqali birlashadi. Bu sema FBlar tarkibidagi ilon leksemasining “ayyorlik” va “ehtiyotkorlik” semalari vositasida yuzaga chiqmoqda.

Esi kirdi, aqli yetadi frazemasida ham “aqli” semasi mavjud bo‘lib, ular “bilmoq” semasi bilan yuqoridagilardan farq qiladi. Esi kirdi FBlar tarkibidagi “natija”, aqli yetadi frazemasidagi “baho” semalari ularning o‘zaro farqlovchi semalari hisoblanadi. Ko‘p ishni ko‘rgan bu Zunnunov ilonning yog‘ini yalagan. Juda nozik joyini topibdi. (I.R.) “Bo‘rk ol” desa bosh olmoq, alifni kaltak deyolmaslik FBlari ham aqliy holat bildiruvchi FSGga mansub bo‘lib, frazemalarni “aqlsiz”, “uquvsiz” semalari boshqa shu qatorga kiruvchi birliklardan farqlaydi. “Bo‘rk ol” desa, bosh olmoq frazemasining “sallasini ol” desa, kallasini olmoq varianti mavjud bo‘lib, bu FB ham nutqda “aqlsiz”, “sodda” semalarini namoyon qiladi. Aqldan ozmoq, esini yemoq, aqli zaif FBlari aqliy holatning yomonligini bildirish uchun xizmat qiladi. Bu frazeologizmlarni “aqlsiz”, “ruhiy kasal” semalari birlashtiradi.

Aqliy holat bildiruvchi FBlarni shartli ravishda darajalanish munosabatiga kiradi deyish mumkin. Ilonning yog‘ini yalagan-aqli yetadi-esi kirdi-“bo‘rk ol” desa, bosh olmoq- esini yemoq-aqldan ozmoq.

Boshi qotdi, boshi shishdi frazemalari ham aqliy holatni bildiradi. Bu FBlarda “natija” semasi mavjud, ya’ni aqliy holat aqliy faoliyati natijasi sifatida yuzaga chiqadi, uzoq aqliy faoliyat natijasida charchash holatini ifodalash uchun xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Усманов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи Тошкент 2020
2. Абдуллаев Ш.Д. Таржима асарларда фразеологизмлар семантикаси (Т.Қайипбергенов асарларининг ўзбекча таржимаси асосида) Филол.фанл.номз....дисс.авторреф. Тошкент, 2006.
3. Абдуллаев А. Ҳозирги замон ўзбек адабий тилида сўз бирикмаларини ўрганиш масаласига доир // Алишер Навоий номидаги ЎЗДУ асарлари. Янги серия, 77-чиқиш. Самарқанд, 1958.
4. Алмаматова Ш.Т. Ўзбек тили фраземаларининг компонент таҳлили: Филол.фанл.номз....дисс.авторреф. Тошкент, 2008.
5. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. М.: СЭ, 1966



6. Sayidrahimova, N. S., & Kabulova, U.S. (2020). General Theoretical Aspects In Synchronical Typological Learning Of English Adverbs (Adverb Goals). Published in International Journal of Research Available at <https://edupediapublications.org/journals>. Available online: <http://edupediapublications.org/journals/index.php/IJR/P.-Indiya,384-398>. 10.
7. Sayidmaxamadovna, K. U., & Muratovna, K. Z. (2023). "FRAZEOLOGIZM" ATAMASI HAQIDA. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(2), 711-715. 11.
8. Sayidmaxamadovna, K.U., & Isakovna, B.R. (2023). "PAREMIYA" HAQIDA. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(2), 773-777.
9. Sayidrahimova, N. S., & Kabulova, U. S. (2020). General Theoretical Aspects In Synchronical Typological Learning Of English Adverbs (Adverb Goals). Published in International Journal of Research Available at <https://edupediapublications.org/journals>. Available online: <http://edupediapublications.org/journals/index.php/IJR/P.-Indiya,384-398>.
10. Kabulova, U. (2023). "FILOLOGIYA" TERMINI HAQIDA. Scienceweb academic papers collection.
11. Sayidmaxamadovna, K. U., & Isakovna, B. R. (2023). "PAREMIYA" HAQIDA. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(2), 773-777.
12. Sayidmaxamadovna, K. U., & Muratovna, K. Z. (2023). "FRAZEOLOGIZM" ATAMASI HAQIDA. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(2), 711-715.
13. Muratovna, K. Z., & Sayidmaxamadovna, K. U. (2023). TILSHUNOSLARNING "FRAZEOLOGIK BIRLIK" ATAMASI HAQIDAGI QARASHLARI. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(2), 768-772.
14. Sayidmahamadovna, S. N., Saïidmakhadovna, K. U., Komiljonovna, K. G., Azimjanovna, T. O., & Ganiyevna, M. D. (2020). AMBIGUITIES IN UZBEK LANGUAGE-SYNTACTIC HOMONYMS. PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology, 17(7), 6542-6548.
15. Sayidmaxamadovna, K. U., & Isakovna, B. R. (2023). "PAREMIYA" HAQIDA. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(2), 773-777.